

MUMTOZ G‘AZAL VA TARJIMA SAN’ATI

Sevinch Raximova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fors-tojik mumtoz adabiyotining buyuk namoyandasi Hofiz Sheroziy g‘azallarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi, xususan, Shoislom Shomuhamedov tarjimalarining badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda Hofiz she‘riyatidagi tasavvufiy-falsafiy mazmun, ramziy obrazlar va ruhiy kechinmalarning o‘zbek tilidagi talqini yoritilgan. Maqolada Hofiz ijodining Sharq va G‘arb adabiyotiga ta‘siri hamda uning o‘zbek adabiyotidagi tarjima an‘analari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Hofiz Sheroziy, Shoislom Shomuhamedov, mumtoz g‘azal, tarjimashunoslik, tasavvuf, fors-tojik adabiyoti, o‘zbek tarjimasi, badiiy mahorat, mumtoz she‘riyat, falsafiy ruh, Sharq adabiyoti.

CLASSICAL GHAZAL AND TRANSLATION ART

Sevinch Raximova

Tashkent State University of Oriental Studies

Student of the direction of world economy and

international economic relations

Annotation: this article analyzes the translation into Uzbek of the ghazals of the great exponent of Persian-Tajik classical literature, Hofiz Sheroziy, in particular, the artistic features of the translations of Shoislom Shomuhamedov. In it, an article covering the Uzbek language interpretation of mysticism-philosophical content, symbolic images and spiritual experiences in the poetry of Hafiz also reflects on the influence of Hafiz's work on Eastern and Western literature and its translation traditions in Uzbek literature.

Keywords: Hofiz Sheroziy, Shoislom Shomuhamedov, classical ghazal, Translational, mysticism, Persian-Tajik literature, Uzbek translation, artistic skill, classical poetry, philosophical spirit, Oriental literature.

КЛАССИЧЕСКАЯ ГАЗЕЛЬ И ИСКУССТВО ПЕРЕВОДА

Севинч Рахимова

Ташкентский государственный университет востоковедения

Студент факультета мировой экономики и

международных экономических отношений

Аннотация: В данной статье анализируются художественные особенности переводов на узбекский язык Газелей великого деятеля персидско-таджикской классической литературы Хафиза Ширази, в частности переводов Шойслома Шамухамедова. В статье, посвященной мистико-философскому содержанию, символическим образам и духовным переживаниям в поэзии Хафиза на узбекском языке, рассматривается влияние творчества Хафиза на восточную и западную литературу, а также его переводческие традиции в узбекской литературе.

Ключевые слова: Хафиз Ширази, шойслам Шамухамедов, классическая Газель, переводоведение, мистицизм, персидско-таджикская литература, узбекский перевод, художественное мастерство, классическая поэзия, философский дух, Восточная литература.

Fors-tojik mumtoz adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Hofiz Sheroziy asrlar davomida Sharq va G'arb adabiy tafakkuriga ulkan ta'sir ko'rsatgan shoirdir. Uning g'azallari nafaqat ishq va visol tarannumi, balki inson ruhiyati, davr iztiroblari, falsafiy mushohada va ma'naviy kamolotning betakror badiiy ifodasi sifatida qadrlanadi. Shu bois Hofiz ijodini boshqa tillarga muvaffaqiyatli o'girish faqatgina til bilimni emas, balki yuksak badiiy did, mumtoz adabiyot ruhini his etish va sharqona tafakkurni chuqur anglashni ham talab etadi. O'zbek adabiyotida Hofiz Sheroziy merosini

tarjima va targ‘ib qilishda bir qator zabardast tarjimonlar xizmat qilgan bo‘lsalar, ular orasida Shoislom Shomuhamedov alohida o‘rin egallaydi. U fors-tojik adabiyotining nozik jihatlarini chuqur his qilgan, mumtoz she‘riyat ohangini o‘zbek tilida tabiiy va jozibali ifodalay olgan tarjimon sifatida tanilgan. Shoislom Shomuhamedovning Hofiz g‘azallariga qilgan tarjimalari nafaqat mazmuni, balki asl matndagi ruh, musiqiylik va badiiy nafosatni ham saqlab qolishga intilgani bilan e‘tiborlidir.

Hofiz Sheroziy yashagan XIV asr Eroni siyosiy beqarorlik, mo‘g‘ullar istilosidan keyingi ichki nizolar va xalqning og‘ir hayoti bilan xarakterlanadi. Ana shunday murakkab davrda yashab ijod qilgan shoir g‘azal janriga yangi ruh olib kirdi. U an‘anaviy ishqiy mavzularni ijtimoiy va falsafiy mazmun bilan boyitdi. Hofiz she‘rlarida insonning ruhiy iztiroblari, haqiqat izlash yo‘lidagi kurashi, erkinlik va komillikka intilish tuyg‘ulari chuqur aks etgan. Shoirning “lison ul-g‘ayb” — “g‘oyibning tili” deya e‘tirof etilishi ham uning she‘riyatidagi ma‘no qatlamlarining nihoyatda serqirra ekanidan dalolat beradi. Shoislom Shomuhamedov Hofiz g‘azallarini tarjima qilishda aynan mana shu ichki ruhiyatni ochib berishga harakat qilgan. Uning tarjimalarida mumtoz uslub saqlangan holda, matn o‘zbek kitobxonlari uchun ravon va ta‘sirchan tus oladi. Tarjimon she‘rning tashqi qofiyasi yoki so‘zma-so‘z mazmunidan ko‘ra, uning ichki musiqasi va hissiy quvvatini yetkazishga alohida ahamiyat bergan. Bu esa tarjimalarning tabiiy va badiiy mukammal chiqishiga xizmat qilgan. Shoislom Shomuhamedov tarjima qilgan Hofiz g‘azallaridan biri quyidagicha boshlanadi:

Tong-sahar vaqti, qarang, sabru sabotim berdilar,

Qop-qora tundan olib, obi hayotim berdilar.

Nogahono porlatib jismimni ezgu shu‘lasi,

Sarbalandlik jomida yangi sifotim berdilar.

Ne muborak tun edi ul va ne xurram kech edi,

Ul qadr kechda mening qutlun barotim berdilar!

Mazkur satrlarda Hofizga xos tasavvufiy-falsafiy ruh yaqqol seziladi. “Tong-sahar”, “obi hayot”, “qadr kech”, “sarbalandlik jomi” kabi obrazlar insonning ma’naviy uyg‘onishi va ruhiy kamolotini ifodalaydi. Shoislom Shomuhamedov ushbu murakkab ramzlarni o‘zbek tilida tabiiy va nafis tarzda bera olgan. Tarjimada nafaqat mazmun, balki g‘azalning ichki ohangi ham saqlanganini ko‘rish mumkin. Tarjimonning mahorati ayniqsa Hofizning tasavvufiy timsollarini talqin qilishda namoyon bo‘ladi. Chunki Hofiz she’riyatida “may”, “mayxona”, “piri mug‘on”, “jom”, “ma’shuqa” kabi obrazlar ko‘pincha ilohiy ma’no kasb etadi. Ularni oddiy tushunchalar sifatida emas, balki ruhiy kamolot va ilohiy haqiqat ramzi sifatida anglash kerak. Shoislom Shomuhamedov ana shu nozik jihatlarni his qilgan holda tarjima qilgani uchun uning o‘girmalari chuqur badiiy ta’sir kuchiga ega.

Hofiz Sheroziy ijodi asrlar davomida ko‘plab xalqlar adabiyotiga ta’sir ko‘rsatgan. Buyuk nemis shoiri Iogann Volfgang Gyote Hofizni “muqaddas Hofiz” deb atab, uning ta’sirida mashhur “G‘arbu Sharq devoni” asarini yaratgan. Rus adabiyotida Pushkin, Lermontov, Yesenin singari ijodkorlar ham Hofiz she’riyatidan ilhomlanganlar. Sharqda esa Hofiz g‘azallari asrlar davomida hofizxonlik an’analarining asosiy manbalaridan biri bo‘lib kelgan. O‘zbek adabiyotida Hofiz merosini tarjima qilish an’anasi ham boy tarixga ega. Xurshid, Muinzoda, Chustiy, Vasfiy, Erkin Vohidov, Muhammad Kenjabek singari ijodkorlar qatorida Shoislom Shomuhamedov ham bu xazinaning xalqimizga yetib kelishida muhim xizmat qilgan. Uning tarjimalari o‘zbek kitobxoniga Hofizning falsafiy dunyosi va poetik mahoratini yanada yaqinlashtirdi. Shoislom Shomuhamedovning Hofiz tarjimalari nafaqat adabiy, balki ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ham ega. Chunki bu tarjimalar orqali kitobxon mumtoz Sharq tafakkuri, tasavvuf falsafasi va inson ruhiyatining nozik kechinmalari bilan yuzlashadi. Tarjimonning badiiy mahorati esa Hofizning asrlar osha yashab kelayotgan ovozini o‘zbek tilida ham jarangdor va ta’sirchan qilib eshittira olgan.